

**INGLIZ VA FRANSUZ TILLARIDA SON KOMPONENTLI  
FRAZEOLOGIZMLARDA ANTONIMIYA HODISASI**

Nurmetova Dilbar Boltaboyevna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya  
fakulteti ingliz tilshunosligi kafedrasи lingvistika (ingliz tili) mutaxassislik 2-bosqich magistrant

**Annotation:** This article shows the uniqueness of the characteristics of synonymy and antonymy in phrases, which are among the main issues of phraseology. Similarities and differences of phraseologisms with numerical components are analyzed.

**Key words:** phraseology, synonym, antonym, number component.

### KIRISH

Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, unda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar, iboralar o'rganiladi. "Frazeologiya" termini grekcha "phrasis" fraza, ifoda "logos" ta'lilot degan ma'nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar kiritiladi. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Uning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lмаган) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma, frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda (L.P.Smit<sup>20</sup>, V.P.Jukov<sup>21</sup>, V.N.Teliya, <sup>22</sup>N.M.Shanskiy) frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folkloriga xos barqaror jumlalar, ba'zi muloqot shakllari ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Buyuk rus tilshunosi V.V.Vinogradov<sup>23</sup> frazeologiya tarkibiga barqaror jumlalar hamda qanotli so'zlarni kiritilishiga qarshi bo'lgan va "maqol va matallar so'z ekvivalenti bo'la olmasligi, hamda shaklan gapga teng bo'lgani uchun frazeologiyaning o'rganish obyekti bo'la olmaydi" deb aytib o'tgan. Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi darajasi uchraydi.

<sup>20</sup> С м и т , Л. П. Ф р а з е о л о г и я а н г л и й с к о г о я з ы к а . - М. : Д р о ф а , 1998. - 158 с

<sup>21</sup> Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов / В. П. Жуков. – Москва: Просвещение, 1978. - 160 с

<sup>22</sup> Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В.Н.Телия. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.

<sup>23</sup> Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – М.: Высшая школа, 1974. – 155 с.

Antonimiyani belgilash, bir tomondan, iboralarning lug‘aviy- ma’nosini chuqurroq anglashga olib keladi. Antonimlar deyilganda zid ma’noli so‘zlar tushuniladi., polisemiyada esa bir iboraning ma’nolarini farqlashga yordamlashadi, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi. Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so‘zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson : masalan: *first rate (best quality)-fourth rate (of inferior quality, not the best)*: fransuzcha: *de premier ordre – quatrième taux*

A.V. Kunin, frazeologik antonimlar qarama-qarshi ma’noli lingvistik birliklar sifatida tushunilishini ta’kidlaydi.

Frazeologik antonimlarga oid asarlarda antonimlarning bir qancha xarakterli xususiyatlari qayd etilgan

Frazeologik antonimlarning eng muhim semantik xususiyatlari qarama-qarshi ma’nolar va “ma’nolar o‘zaro bog‘liqligi” da o‘zini namoyon qiladigan semantik umumiylit hisoblanadi, ular bir xil umumiyl tushunchani ifodalaydi. Aksariyat asarlarda antonimlarning majburiy xususiyati sifatida hech bo‘lmaganda qisman mos kelishi qayd etilgan.

I.V. Arnoldning fikricha, frazeologik antonimlar leksik tarkibda bir-biriga mos kelishi yoki bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Ikkala holatda ham ular erkin foydalanishda antonim bo‘lgan komponentlarni o‘z ichiga olishi mumkin: Frazeologik antonimlarning lug‘aviy tarkibi o‘rtasida nomuvofiqlik bo‘lsa, ularning lug‘at ta‘riflari tarkibidagi antonimik elementlar (ham so‘zlar, ham o‘zgaruvchan so‘z birikmalari) ularning antonimiyasining rasmiy ko‘rsatkichlari bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Frazeologik birliklarning semantik qutbligini tavsiflovchi differensial xususiyatlarni aniqlash uchun antonimik farqlovchi ishlataladi Frazeologik antonimiyada frazeologik antonimlar o‘rtasidagi qarama-qarshi ma’nolarni aniqlash o‘rganiladi. Qiyslanayotgan tillarimizni ilmiy tadqiqot ishimizning uchinchi bobining ikkinchi paragrafini ichki va tashqi qarama-qarshiliklar, frazeologik antonimlar va frazeologik antonimiya, frazeologik birikmalarning tarkibiy qismlari o‘rtasida qarama-qarshi munosabatning hosil bo‘lish tabiatini, antonimlarning semasiologik jihatdan aniqlanishiga qaratdik. Bo‘limda frazeologik birikmalar doirasidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarga munosabat o‘rganilib, antonim va frazeologik antonimiya o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatilgan va bu farqlarni ajratuvchi qarashlar misollar bilan ochiq yoritilgan. Frazeologik birikmalar komponentlari o‘rtasida qarama-qarshi munosabatning hosil bo‘lish tabiatini ko‘rib chiqishda dunyoda ro‘y berayotgan ziddiyatlarga falsafiy qarashni tilshunoslikda frazeologik son komponentlari o‘rtasida sodir bo‘layotgan qarama-qarshiliklar o‘rganiladi. Antonimlarning semasiologik jihatdan belgilanishiga bag‘ishlangan qismida esa aniqlanish tamoyillari ko‘rsatilgan va aniq misollar bilan asoslangan. Tillar kesimida turli tizimlarga mansub frazeologik birikmalarning semantik tuzilishi yetarlicha o‘rganilmagan. Shuni ta’kidlash kerakki, har bir son komponentli frazeologik birikma turli darajadagi tillardagi antonimik munosabatda o‘ziga xos xususiyatga ega. Turli tizimli tillardagi frazeologik birikmalarni o‘rganish nuqtai nazaridan ana shu o‘ziga xos xususiyatlarning ochilishi, antonimik ma’no va antonimiyalarning tizimli tavsifini yaratish

juda muhimdir. Muayyan ijtimoiy muhit mahsuli bo'lgan frazeologik birikmalar jamiyat hayotining rivojlanishi bilan birga doimo rivojlanib, oydinlashadi. Antonimiya — qarama-qarshilik til hodisasi bo'lib, insoniyatining barcha jabhalarini qamrab oladi, shuning uchun ham tildagi qarama-qarshilikni jamiyatda sodir bo'layotgan qarama-qarshiliklardan tashqari tasavvur etib bo'lmaydi. Shunday qilib, tilshunoslikda antonimiya va antonimiyani o'rganish antagonizm va ziddiyatlarni falsafiy bilish bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Umumiy sifatda qarama-qarshiliklar falsafiy-mantiqiy, lingvistik va umuminsoniy til hodisasidir. Bu hodisaning jamiyatdagi o'rni beqiyos. Inson tafakkurida ushbu til hodisasidan kelib chiqadigan assotsiatsiyalar tilning frazeologik qatlamida o'rganilsa, bu masala ham o'zining katta ahamiyat kasb etishini isbotlashi aniq. Ushbu ilmiy ishni qiyoslashda eng samarali usullardan foydalangan holda tadqiq etdik. Jumladan, tekshirish usuli: tadqiqotning tipologik qiyosiy-kontrastiv usuli qo'llanildi, chunki ko'p hollarda taqqoslangan tillarda yangi elementlarni topish mumkin. Bu turli tillarni lingvistik o'rganishda o'z asosini topgan usuldir. 2.Ichki va tashqi qarama-qarshiliklar Semasiologiyaning ob'yekti sifatida qarama-qarshi ma'nolar leksikologiyada ham, stilistikada ham fan sohasi sifatida o'rganiladi va chuqur tadqiq etiladi. Bu fan sohasi asosan turli frazeologik tarkibga ega, tushunchalarning qarama-qarshi xususiyatlarini ifodalovchi, miqdor, sifat, zamon va o'rin mazmuniga ega bo'lgan so'z va so'z birikmalarini o'rganadi. Masalan: *first refusal – one side of the coin*, fransuzcha: *le premier refus – une face de la médaille*.

*Obyektlar va hodisalar o'rtasidagi qarama-qarshilikning ikki turi mayjud: ichki va tashqi qarama-qarshiliklar. Obyektlar va hodisalar o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshilik tashqi qarama-qarshilikdir, lekin hodisalarning ichki mohiyati o'rtasidagi qarama-qarshilik ichki qarama-qarshilikdir. Ichki qarama-qarshiliklar asosida hodisaning qarama-qarshi xususiyatlari yaratiladi. Narsa va hodisalarning qarama-qarshi xususiyatlarini qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan ularga xos bo'lgan ichki ziddiyatlarni ochish mumkin. Ma'lumki, tushunchalar o'lchamlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Qarama-qarshi tushunchalarda ikkita xususiyat o'zini namoyon qiladi: qarama-qarshi va qarama-qarshi xususiyatlar. Tushunchalarning qarama-qarshi xususiyatlari, mazmuni bir-birini inkor etadi. Ular o'tish, oraliq bosqichga ega emaslar, lekin mazmuni bo'yicha ularning qarama-qarshi xususiyatlari bir-birini inkor etmaydi va oraliq o'tish bosqichiga ega.* Masalan: *head in the clouds – down to earth or both feet on the ground* boshi osmonga yetdi yoki ikkala oyog'i yerda. to have one's head in the clouds (informal) – avoir la tête dans les nuages – to have one's feet on the ground (= *have a sensible attitude*) avoir les pieds sur terre.

*to be on one's feet (= standing) être debout*

*to rise to one's feet, to get to one's feet (= stand up) se lever*

*to get back on one's feet (= recover) (after illness, bad experience) se remettre sur pied*

*to put one's feet up (= relax) se détendre*

*to find one's feet (figurative) s'acclimater*

*to put one's foot down (= accelerate) appuyer sur le champignon; (= say no) ne pas vouloir en entendre parler*

*He was going to go skiing, but his wife put her foot down. Il allait partir au ski, mais sa femme n'a pas voulu en entendre parler.*

*to have one's feet on the ground (= have a sensible attitude) avoir les pieds sur terre*

*to keep one's feet on the ground (= have a sensible attitude) garder les pieds sur terre*

*to stand on one's own two feet (= be independent) se débrouiller seul*

*to land on one's feet, to fall on one's feet – retomber sur ses pieds*

*to put one's foot in it (informal) – mettre les pieds dans le plat*

*to put one's best foot forward (old-fashioned) – faire de son mieux*

*to have one foot in the grave (informal) – avoir un pied dans la tombe – bir oyog'i go'rda*

Bu frazeologik birikmalar bir-biriga qarama-qarshi ma'noga ega bo'lsa-da, ikkinchisi oraliq birikmadir. O'zbek tiliga tarjimada bexush bo'lish, atrofida bo'lganlardan xabardor bo'lish kabi qarama-qarshi ma'nolarni egallagan *to be down to earth/to have both feet on the ground* frazeologik birikmalari shaxsni ko'rsatadi. uning atrofida sodir bo'layotgan faktlardan bexabar bo'lib, uning atrofida sodir bo'layotgan narsalarga allaqachon hayron bo'ladi va narsalarning haqiqiy holatida atrofga qaraydi. uchun e. g. Siz maslahat uchun Syuzanga bora olasizmi? U sizga sevgi hayotingizga amaliy yechim beradimi? Atrofdagi voqelik bilan aloqasi uzilgani uchun boshi yerga egilgan. Frazeologik birikmalardagi qarama-qarshiliklarning faqat qarama-qarshi xususiyatlarini tilshunoslikda qo'llaniladigan antonim atamasi bilan ifodalash mumkin, chunki ularning mazmuni antonimlarning mazmuni bilan o'xshashdir .

Tilshunoslikdan ma'lumki, antonim atamasi yunonchadan kelib chiqgan. Antonim so'zi qarshi, qarama-qarshilik, onoma-nomdan iborat bo'lib, ya'ni qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan so'z va so'z birikmalariga aytildi. Antonimlardan hayotda mavjud qarama-qarshiliklarni aks ettirish uchun foydalanamiz. Fikrda bo'lgani kabi tilda ham qarama-qarshi ma'nolarni ifodalash uchun so'z va so'z birikmali mavjud. Antonim ma'nolar o'z mohiyatiga ko'ra so'z birikmalarining qarama-qarshi belgilarining ma'nolariga yaqinlikka ega. Bu yaqinlik turli turkumlarga mansub frazeologik birikmalarning turli qarama-qarshi xususiyatlari bilan bog'liq. Albatta, ma'noning o'zaro qarama-qarshiligidir. Ma'nolar ham qarama-qarshi, ham qarama-qarshi xususiyatlarni aks ettiradi. Qarama-qarshi ma'noli frazeologik birikmalar obyektiv voqelikning bir sohasiga mansub. Tilda qo'llanadigan antonim frazeologik birikmalar tushunchalar bilan bog'lanadi. Agar predmet va hodisalar bo'lmasa, tushuncha yoki tushunchaning qarama-qarshi xususiyatlarini ko'rsatuvchi antonimlar ham bo'lmaydi. Frazeologik antonimlar deganda so'z birikmalarining tarkibiy qismlariga faqat inkor qo'shimchalarining qo'shilishidan hosil bo'lgan qarama-qarshi ma'nolar tushunilmaydi, frazeologik birikmalarning qarama-qarshi ma'noli, miqdor, sifat, mazmun mazmuniga ega bo'lgan ifodalarining qarama-qarshi qo'shilishi tushuniladi. Antonim so'zlarni salbiy ma'noga ega so'zlar bilan tenglashtirmaslik kerak, chunki

antonimlar qarama-qarshi nomlar bilan (ikki so'z yoki so'z birikmasi bilan) ifodalangan bo'lsa, inkor - bir xil so'z yoki so'z birikmasining qarama-qarshi ma'noda ishlatalishi. Shu o'rinda frazeologik antonim termini frazeologik birikmalarga xos bo'lib, qarama-qarshi ma'noga ega degan xulosaga kelish mumkin. Xuddi shu o'zakdagi frazeologik birikmalarning tasdiq va inkor komponentlari o'rtasida ham qarama-qarshilik mavjud, lekin bu komponentlar bir-biriga antonim munosabatda bo'lmaydi, chunki ular inkor qo'shimchalali bir o'zakli bo'lgan so'zlar bilan ifodalangan qarama-qarshi ma'no, bu so'zlarning lug'aviy ma'nosi bilan bog'lanmagan, balki ularga qo'shilgan qo'shimchalar bilan bog'langan. Demak, frazeologik birikmalarning tarkibiy qismlariga qo'shilgan qo'shimchalar frazeologik birikmaning ichki ma'nosini o'zgartirmaydi va ulardag'i qarama-qarshi xususiyatlarni kashf eta olmaydi.

Antonimlik munosabatlardagi ma'noning tabaqalanishi tahlil qilish natijasida farqlanadi, leksikografik manbalarga ko'ra son komponentli frazeologizmlarni ma'nolarini kontekst va quyidagi belgilarga ko'ra farqlash mumkin:

1. Ma'nosi to'liq tushunarli bo'lgan ikkita antonim yoki tarkibida soz bo'lgan antonimlar son komponentini frazeologizmlarning ma'nosini izohlovchi birikmalar: *In one ill hour* ( baxtga qarshi) – in one good hour ( baxtga ko'ra ), dans une mauvaise heure – en une bonne heure kabi misollar bilan izohlash mumkin.

2. Ikki so'z birikmasi birinchi holatda tasdiq ikkinchi holatda esa inkor: *keep off one's grass* (birovning ishiga burnini tiqmaslik) *poke one's nose into somebody's affars* (birovning ishiga burnini tiqish) kabi se tenir à l'écart de l'herbe – fourrez son nez dans.

3. Semantik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan son komponentli frazeologik birliklar: : *keep one's hair on - keep one's temper, lose one's hair- lose one's temper;* o'zini tutmoq – o'zini yo'qotmoq; *fransuzcha: garder ses cheveux - garder son sang-froid, perdre ses cheveux - perdre son sang-froid*

*first refusal - one side of the coin go back to square one; fransuzcha: le premier refus – une face de la médaille. Confession is the first step to repentance – La confession est le premier pas vers la répentance. Between two fires —entre deux feux; there are no two ways about it when two Sundays come in one week - two blacks do not make a white; fransuzcha : il n'y a pas deux façons de faire quand deux dimanches arrivent dans une semaine – deux noirs ne font pas un blanc.*

Frazeologik antonimiya lingvistik hodisa sifatida tilga olindi va magistrlik dissertatsiyamizda bu hodisaga to'xtaldi. Til hodisasi sifatida o'lchovli frazeologik birliklardagi antonimiya ikkalasiga ham xosdir aynan son komponentli alohida maqollar va iboralarda ham kuzatishimiz mumkin. Kuzatishlar natijasida o'xshash va har xil so'zlar va frazeologik birliklar o'rtasidagi antonimiya tushunchasining jihatlari ochib beriladi. Masalan: *two dogs over one bone seldom agree – two of a trade never seldom agree* ikki qo'chqorning kallasi bir qozonda qaynamas; *fransuzcha: deux chiens sur un os sont rarement d'accord - deux d'un commerce ne sont jamais rarement d'accord.* Quyidagi iboralarda orfografik nuqtai nazardan qaraganda son komponenti bo'lgan one's olmoshi qatnashgan iboralarning o'zaro zid

ma'noga ega ekanligini kuzatamiz: *loosen one's purse strings - tighten one's purse strings; to play one's cards well - to play one's cards badly at one's elbow- under one's nose Hold one's tongue, keep one's mouth shut Sit on one's hands, twiddle one's thumbs / sweat one's guts out, work one's fingers to the bone .*

Fransuz tilida: *desserrer les cordons de la bourse - serrer les cordons de la bourse; bien jouer aux cartes - mal jouer aux cartes au coude - sous le nez Tenir sa langue, garder sa bouche fermée S'asseoir sur ses mains, se tourner les pouces / se suer tripe, travaille ses doigts jusqu'à l'os .*

Tahlillarimizdan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, son komponentli iboralarni frazeologiyada antonimik munosabatlarni o'rganish qarama-qarshi munosabatlarning asosini nafaqat ma'no farqlari, balki u yoki bu xususiyat, hodisa yoki predmetning namoyon bo'lish chegarasini belgilovchi semantik umumiylilik ham tashkil etishini ko'rsatadi. va aniq tushunilgan mohiyatning ajralmas qismi bo'lib, ularning qarama-qarshi tomonlarini ko'rsatadigan birliklar qandaydir tarzda o'xshash emas, barcha iboralarning antonimlik xususiyatida son komponenti iboralar qatnashmaydi Olib borilgan tahlil leksik-semantik nuqtai nazardan ko'rinish turibdiki, ko'rib chiqilayotgan tillarning turli stilistik, baholovchi va emotsiyal-ekspressiv qiymat son qatnashgan frazeologik birliklarida antonimiya hodisalari mayjud bo'lib, nutqning turli uslublariga mansub bo'lib, emotsiyal-ekspressiv qiymati bilan ajralib turishi mumkin. Antonimiyaning zaruriy belgilari denotativ komponentlarning ma'nolarida namoyon bo'ladi, o'rganilayotgan ingliz va fransuz tillarida olingaan frazeologizmlari esa bir xil kategorik-grammatik xususiyatlarni va semantik umumiylikni saqlab qoladi, konnotativ komponentlar bir-biriga mos kelishi yoki bir-biridan farq qilishi mumkin.

## XULOSA

Frazeologik birliklar nutqga mazmun, mohiyat, asoslilik, obrazlilik hamda yorqinlik bag'ishlaydi. Frazeologizmlarning bu xususiyatlari hech qanday badiiy tasvir nazarda tutilmaydigan so'zlashuv uslubida ham aniq saqlanib qoladi.

Hozirgi zamon tilshunosligi nuqtai nazardan frazeologiya alohida fan sifatida tan olingan bo'lsada u bevosita leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, til tarixi, falsafa fanlari tarixi, mantiq hamda mamlakatshunoslik fanlari bilan aloqadorlikda rivojlanib bormoqda.

Tilda tayyor holda saqlanadigan birlik sifatida FBlar har doim aniq ma'no, doimiy tarkib hamda strukturaga ega birliklardir.Tilning frazeologik fondi haqida gap ketganda tilshunoslar ularning an'anaviyligi, turg'unligi son hamda sifat jihatidan o'zgarmas birliklar ekanligini alohida ta'kidlab o'tadilar. Tilning frazeologik fondining asosiy qismini tashkil qiluvchi frazeologizmlar etimologiyasi esa, tilda frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixi va ularning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Fransuz va ingliz tillaridagi frazeologizmlari nutqni jonli rang-barang bo'lishini ta'minlab, unga o'ziga xos ekspressivlik yuklaydi.

FBlar xalq og'zaki ijodida, kundalik muloqotda keng qo'llanilib, umuman uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak nomlari, oziq - ovqat nomlari, pul birliklari, kundalik ish-harakatlarni, shuningdek insonning emotsiyal- ruhiy holatlarini ifodalab keladi. Ingliz va

fransuz frazeologizmlari oddiyligi, maishiy xarakterga egaligi, ba'zan satirik yoki hajviy uslubiy bo'yoqqa ega bo'lishi va yuqori darajadagi emotSIONalligi bilan kitobiy frazeologizmlardan ajralib turadi.

Frazeologik birliklar olamning lisoniy manzarasini yaratishda katta rol o'ynaydi, chunki ularda millatning hayoti, ruhiyati va o'zigagina xos milliy jihatlari namoyon bo'ladi. Son komponentli frazeologizmlar tillarda ham olamning lisoniy manzarasida ko'p sonli frazeologizmlar, maqol hamda matallar orqali keng miqyosda va to'la aks etadi.

Son komponentli frazeologizmlar struktur turlariga ko'ra boshlang'ich, negiz sonlar sanaladi. Frazeologik mahsuldorlik ingliz tilida bir, ikki, yetti, fransuz tilida bir, ikki, uch, o'zbek tilida esa bir, ikki, to'rt va besh kabi negiz sonlar ustunlik qiladi. Fransuz tilida, o'ziga xos grammatik tuzilish tufayli, frazeologik birlıklarni hosil qilishda tartib sonlar ishtirok etadi, bu holat o'zbek tiliga to'g'ri kelmaydi. Qiyoslanayotgan tillarda frazeologik birlıklarining universal xususiyati har ikkala tilda eng sermahsul bo'lib desima (bir bilan o'nlik oralig'i) sanoq tizimidagi dastlabki sonlar hisoblanishidir. Sonlarga biriktirilgan tushunchalar taxminan o'sha tabiat va kelib chiqishga ega hamda odamlarning ma'lum madaniy-tarixiy tajribasini aks ettiradi.

O'rganishlar natijasida ikkita tilda o'shash va farq qiluvchi son komponentli iboralarnig o'zaro sinonim va antonimlik xususiyatlari tahlil etildi va ko'zlangan maqsadga erishildi. Son komponentli iboralarning ramziyligi aniqlandi va ularning semantik strukturasi ochib berildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Смит, Л. П. Фразеология английского языка. – М.: Дрофа, 1998. – 158с
2. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов / В. П. Жуков. – Москва: Просвещение, 1978. – 160 с
3. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты / В.Н.Телия. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
4. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – М.: Высшая школа, 1974. – 155 с.
5. Гак В.Г. Новый французско-русский фразеологический словарь. – М.: 2005. 67-209-344с.
6. Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). М.:Издательство «Высшая школа», 1970.150-с
7. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/first-rate>
8. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/purse-strings>
9. <https://dictionnaire.reverso.net/francais-synonymes/du+premier+ordre>